

INKLYUZIV TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Muxamedova Sug’diyona Ikrom qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Surdopedagogika va inklyuziv ta’lim yònalishi 403-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim, ushbu ta’limning vazifa va tamoyillari haqida so’z yuritilgan. Inklyuziv ta’limda alohida ta’limga ehtiyoji bo’lgan o’quvchilarni psixologik-pedagogik qo’llab quvvatlash ishlarini to’g’ri tashkil qilish to’g’risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Inkyuziv ta’lim, integratsiya, korreksiya, tamoyil, kompleks, ta’lim, ehtiyoj, rivojlantirish.

Аннотация: В этой статье рассказывается об инклюзивном образовании, задачах и принципах этого образования. Даны информация о правильной организации работы по психолого-педагогическому сопровождению обучающихся с особыми образовательными потребностями в инклюзивном образовании.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, интеграция, коррекция, принцип, комплекс, образование, потребность, развитие.

Inklyuziv ta’lim bu-davlat siyosati bo‘lib, nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘sqliarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlarni yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo’shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir.

Inklyuziv ta’lim- bu barcha bolalar uchun ta’limning bir xil mavjudligini va barcha bolalarning turli ehtiyojlariga moslashish nuqtaiy nazaridan umumiyligi ta’limni rivojlantirishni nazarda tutadigan kengroq integratsiya jarayoni. Aloida ta’limga ehtiyoji bo’lgan bolalar bilan inklyuziv ta’lim sharoitida ishslashda bolalarning dastlabki o’quv yilini boshlashda albatta boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, maxsus pedagog va psixologlarning ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Buning uchun pedagogik jamoaning psixologik tayyorgarligini oshirish inklyuziv ta’limning samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Inklyuziv ta’lim vazifalari:

- Ta’lim muassasasida ta’limda alohida ehtiyoji bo’lgan imkoniyati cheklangan bolalar va o’smirlarning ta’lim olishlari uchun zarur psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlar yaratish, ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlari amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishini, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish:

- Maxsus ta’lim muassasasi o‘quvchilarini umumta’lim maktablari bilan uyg‘unlashtirgan holda faoliyat olib borish yo‘li bilan o‘quvchilarning ta’limdagি tenglik huquqini kafolatlash;

- Jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘sqliarni bartaraf etish, bolaning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

- Aloxida yordamga muxtoj bolalar va o‘smirlarni oilalardan ajramagan xolda yashash huquqini ro‘yobga chiqarish;

- Jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarga muqobil munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta’limga kiritishning asosiy tamoyillari:

1. Inklyuziv ta’limning e’tirof etilishi
2. Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo‘lishi tamoyili
3. Bog‘lanishning mavjud bo‘lishi tamoyili
4. Markazlashtirilmagan bo‘lishi tamoyili.
5. Inklyuziv ta’limda kompleks yondoshish tamoyili
6. Malakaviylik tamoyili.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni integratsiyalarini nazorat qilish tizimi quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi.

1. Yangi o‘quv dasturini tasdiqlash . O‘quv dasturi o‘quv jarayonini mazmuni va vazifalarini ilmiy ijtimoiy va texnik amaliyatga bog‘liq bo‘lishi va shu bilan birga har bir o‘quvchi, ayniqsa, alohida ta’limiy extiyojlarga ega o‘quvchi tomonidan fanni idrok etish sur’atini o‘ziga xos tuzilishiniinobatga olishi jois.

2. Mutaxassislarni rivojlantirish va tayyorlash.Ta’limni isloq qilishni olg‘a surilish mutaxassislar-maktab o‘quvchilari, tarbiyachilar, ijtimoiy ishchilarni kasbiy ehtiyojlarini inobatga olmagan holda amalga oshirib bo‘lmaydi.

3. Ta’lim-tarbiya va bolalar muassasalariga ma’murlar tayinlash.Integratsiyalash jarayonida turli tashkilotlar ishini koordinatsiyalash hamda bolalarni o‘ziga xos xususiyatlarini xisobga olgan holda shart-sharoitlar yaratishni tartibga solish va tashkil etishda katta qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

4. Ta’lim tizimini baxolash.Amalga oshirilayotgan ta’lim isloxitini samaradorligini baxolash, unga bog‘liq davlat sifati standartlarini qabul qilish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Inklyuziv ta’limda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvatlash ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish orqali bolalarni maktabda maxsus pedagoglarni jalg etgan xolda to‘siksiz moslashtirilgan ta’lim muxitini yaratish, ularni jamiyatga samarali moslashuvini hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta’lim berishni ta’minlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adadabiyotlar ro‘yxati:

1. Abidova, N.Z. Creating an Inclusive Educational Environment for Children with Special Educational Needs/ International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT, ISSN:2509-0119)/ Vol 20, No 2 (2020).
2. Volosovets, T.V. Inklyuzivnaya praktika v doshkolnom obrazovanii [Tekst] / T.V.Volosovets, YE.N.Kutepova. - M.: Mozaika- Sintez, 2011. - 144 s.
3. Gulidov, P.V. Osnovniye napravleniya modernizatsii infrastrukturi doshkolnix uchrejdeniy [Tekst] / P. V. Gulidov // Spravochnik rukovoditelya doshkolnogo uchrejdeniY. - 2012. - № 7. - S. 42-45.
4. Navigating the new pedagogy : six principles that transform teaching/ Jeff Halstead , United Kingdom, 2011.
5. Jan Kielven THE ARTFUL SCIENCE OF INSTRUCTIONAL INTEGRATION, Adapted from; BEYOND MONET. Barrie Bennett/ Carol Rolhaiser.2001